

MUSIQA O'QITUVCHILAR DARSLARDA ILG'OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARI

Maxkamjanov Samandar Qodir o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

www.maxkamjanov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining yangi va ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanishi uchun zarur omillar, o'quvchilarda musiqa madaniyati darslariga nisbatan qiziqish orttirish uchun dars jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanish texnologiyasining ahamiyati hamda o'quvchilar bilan yaqindan ishlashda o'qituvchining psixologik mahorati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ilg'or texnologiya, musiqa o'qituvchisi, multimediya vositalari, psixologik mahorat.*

KIRISH

Bugun jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatining ham har bir yo'nalishda yuksalib borishi xosdir. Kelajakda ko'zlangan natijalarga erishishimizda, avvalo, bilimli va zamon talablariga javob beradigan, o'z ustida tinmay izlanuvchi kadrlarni tayyorlashimiz zarur. Shubhasiz, aytish mumkinki, bizning ertangi kelajagimiz bugun yetishib chiqayotgan kadrlarning sifatiga bog'liq.

Yurtimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda 1997-yildan kuchga kirgan kadrlar tayyorlashning milliy dasturi bo'yicha butun ta'lim tizimi isloh qilinish jarayonida asosiy diqqat ham ana shunday bilimli, saviyali kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Samarali ta'lim tizimini yaratmay turib, jamiyatni isloh etish bo'yicha oldindagi qator vazifalar ijrosini tasavvur etib bo'lmaydi. Saviyali va yetuk kadrlar tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har bir jihatdan pedagoglarga, ularning mohirona o'quv jarayonlarini tashkil qilishlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham bugungi kunda dars beruvchi tomonidan o'quv jarayonlarini tashkil etishda o'quvchilarning chuqur bilim olishlari uchun yangi va ilg'or texnologiyalardan foydalanishlari uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda darslarni zerikarli va natijasiz qilib qo'yadigan metodlardan butunlay voz kechish kerak. Bugungi kunda o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishda o'qituvchilardan faqatgina chuqur bilim emas, balki, zamon bilan hamohang tarzda yangiliklardan xabardor bo'lishlari, yangi innovatsiyalar haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishlari, yangi metodlar ustida ishlashlari hamda hayotga tatbiq eta olishlari talab qilinadi. Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas! Zamon rivojlanishi bilan birga insoniyat ongi ham tobora rivojlanmoqda. Bugungi kadrlar eski va ish bermaydigan metod va texnologiyalardan voz kechib, yosh avlodning tetik ruh va sog'lom ongda rivojlanishi uchun o'zi ham o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Musiqa darslarini o'tishda ko'plab metodlar mavjud. Ammo ularning ko'pi bugungi kunda foyda bermayotganligi sababli ulardan voz kechib, yangi metodlarga almashtirish kerak. Dars mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchi dars uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanish uchun turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib, dars o'tish, o'qituvchining bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham o'qituvchi umuman musiqiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar qilishi va turli fanning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalarni qo'llagan shaklda o'qitish jarayonini tashkil etishi talab qilinadi.

O'quvchilarning fanni yaxshi qabul qilishida turli o'yinlar orqali amalga oshiriladigan metodlarning o'rni katta. Tabiatan tortinchoq bo'lgan bolani dars jarayonlariga qiziqtirish hamda unda nutqiy rivojlanish, erkin fikrlash va fikrlarini qo'rqmay, tushunarli tarzda boshqa shaxsga yetkazib bera olish qobiliyatini yuzaga chiqarish, shubhasiz, musiqa o'qituvchisining pedagogik hamda psixologik mahoratiga bog'liq. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlar bolani yanada ochadi. Fanga bo'lgan qiziqishi tobora ortadi hamda shaxs sifatida shakllanishida katta turtki bo'ladi.

Bo'lajak musqa o'qituvchilari dars jarayonlarini tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanishi bugungi kun talabi hamdir. Ovoz, animatsiya, video va boshqa multimedia imkoniyatlardan foydalanish, axborot turlarini o'quvchilarning qabul qilish (musiqiy idroki, musiqali hissiy qabul qilish) darajasi, ularning musiqiy qobiliyati, idrok etish imkoniyatlari va mantiqiy o'rganishga mos ravishda qulay ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi. Shu sababdan dars mavzusiga mos multimedia vositalari va ular yordamida videoga olingan ilovalardan dars davomida foydalangan tarzda darslarni tashkil qilish darsning rang barangliligini ta'minlaydi, o'quvchilar diqqatini darsdan chalg'imasligiga zamin yaratadi.

Multimediashtirilgan dars oddiy metodlardan foydalanib o'tilgan darslardan tubdan farq qiladi. Ushbu darslarning bola tasavvurida uyg'onishi hamda xotirasida mustahkamlanib qolishi ancha oson bo'ladi.

Multimedia shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar va ularni videotasvirlarda badiiylashgan texnologiyasidir. Multimedia ilovalarini yaratish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

- o'quv materiallarini tanlash va qismlarga bo'lib chiqish;
- multimedia ilova tarkibini tuzish, (ilovadagi material-nota, musiqa yozuvining ovozlashtirilgan varianti, mavzuga doir multi-videolar) ketma-ketligi tartiblangan holatda bo'lishi ko'zda tutiladi;
- taqdimotning dizayni (ko'rinishi)ni o'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadigan va tushunish uchun oson bo'lishi;
- medianing uzviyligini ta'minlash;
- tayyor bo'lgan ilovani tekshirib chiqish.

Shu holatda tayyorlangan multimediali ilovalar darsning tushunarliklik darajasini oshirish bilan birga, sifatiga ham ijobiy ta'sir qiladi, albatta.

Barchaga ma'lum bo'gan dars uchun ishlangan "slayd"ni olaylik. Uning qay darajad aniqlikka asoslanib yaratilganligi o'quvchilar uchun darsni yaxshi o'zlashtirishida qulaylik yaratadi. O'quvchi konspekt qilishda ko'r-ko'rona ko'chirishdan chetlanib, slayddagi aniq va to'g'ri keltirilgan ketma ketlikka asoslanib, mavzuni yanada aniqroq tushunadi, mavzu xotirasida yanada mustahkamlanadi. Multimediyadan to'g'ri foydalangan holda dars tashkil qilish o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan to'g'ri idrok qilishini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Ilg'or texnologiyalar hamda multimedia vositalari ma'lumotnoma tarzida mavzuga oid asosiy tushunchalar, nazariy ma'lumotlar (dalillari bilan), mavzuga tegishli tarixiy materiallar, fanga doir jadvallar va boshqa ko'rinishda taqdim etiladigan manbaalar bo'lishi mumkin.

Har bir o'quv materiali o'rganib bo'lingach, mavzuga doir mutimedik material namoyish etiladi, va bu jarayonda o'qituvchi bevosita o'zi ham ishtirok etishi lozim. Namoyish etilajak materiallarda mavzu aniq va lo'nda bayon etilgan bo'lishi kerak.

XXI asr-texnika davri. Multimediya materiallarini tayyorlashda o'qituvchi electron darsliklar, videolar, internet resurslari, zamonaviy multimediya ensiklopediyalaridan foydalanishlari mumkin. O'quvchilar uchun ham tushunarli bo'lishi uchun pedagog psixologik mahoratidan foydalanishi o'rinlidir. Vaqt o'tishi bilan internet olamida yanada mukammalroq multimedia materiallari pado bo'lishi tabiiy, albatta. Kelajakda yanada rivojlangan ushbu manbaalarni o'quvchilar qay daraja qabul qilishi ham bugun o'qituvchining dars jarayonini o'quvchilar ongida yaxshi tasavvurda gavdalandirishiga bog'liqdir.

Muhokama. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib shunday deydi: Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi. Al Farobiy fikricha: "Musiqa-nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir". "Kimki ilm, hikmat o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo, o'zi ma'naviy barkamollikka erishmog'i lozim", -deydi Abu Rayhon Beruniy.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga

oshirildi.

Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa fanlari boshqa fanlar kabi maktabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yarataramiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tibor qaratmog'imiz lozim. Buning uchun "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa o'qituvchisi shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilarimizni yosh avlod tarbiyasiga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak.

Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa rahbarining bolalar bilan ishlash usullarining mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbaridan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoq mavjud bo'lishini talab qiladi., chunki san'at pedagogikasi mashaqqatli va mas'uliyatli sohadir. Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanning shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali musiqa rahbarlarining qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ldi.

Xulosa. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ilg'or texnologiyalardan va multimedia vositalaridan samarali foydalanishi uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish zarur. Bularning bari musiqiy ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. O'qituvchilarni ilg'or texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni amaliy qo'llash va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi tarbiyasi konsepsiyasi.-Toshkent, XTB,1995 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2017 yil, 31 may. №PQ-3022. "Xalq so'zi" gazetasi, 1 iyun, 2017 y
3. N Karimova. D Zuparova. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish. 2015-yil, new.tdup.uz
4. MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI O'quv qo'llanma, Toshkent-2009, 5-6-b
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Faoliyat>

6. D.Kabalevskiy «Bolalarga musiqa darsida qanday so'zlash kerak» 1977y.
7. Султонова Н. А., Ўлмасова К. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Интернаука. – 2020.
8. Maxkamjanov, S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGIYALARNING MUSIQA O'RGATISH NATIJALARIGA TA'SIRI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 428-430.
9. Qodir o'g'li, M. S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 87-91.
10. Mukhamedovich, R. D. (2022). CULTURE AND ART IS THE EMBODIMENT OF NATIONAL VALUES. Conferencea, 97-102.
11. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIQA SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 220-224.